

ISAJON SULTON ASARLARIDA NAZARIY QARASHLARNING IFODALANISHI

Maxsutbaeva Nigora Rashid qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika Instituti Turkiy tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Isajon Sultonning asarlarida nazariy qarashlarning ifodalanish prinsiplari haqida fikr va mulohazalar yuritilgan. monaviy o'zbek ijodiyotida Isojon Sulton asarlarining tahlil qilinishi muallif tili va obrazlari bilan aloqadorlikdir bosh obraz masalasining ifodalanishida uning xalqaro grantlar ifodalar va adabiy turlarga xos tarzida nutq shakllanishi bu ijodkor tomonidan katta bir mas'uliyatlilik darajasini yuzaga keltiradi muallif hikoya qilishda asar tarkibida hikoya usulidan ham foydalanishi mumkin. Qahramon ham shaxsiy fikrlarining voqelikka nisbatan munosabatlarni bildira olish huquqiga ega chunki asarning tarkibi boshidan oxirigacha muallif tilidan iborat bo'lmaydi.

KALIT SO'ZLAR: Intertextuallik, voqealar rivoji, kulminatsion vaziyat, mafkuraviy mohiyat, aksiologik vazifa, badiiy tahlil.

Ijodiy asarlarda an'anava noan'anaviy usullarning qo'llanilish darajasi yetakchilikni kashf etadi. Asarlari bir ko'ringanda xalqaro ruhda o'zbek milliy folklorlarining ifodalanishi asosida yuzaga kelgandek ko'rinsada milliy qadriyatlarga uyg'un holda keluvchi jahon adabiyoti yo'nalishlari haqida ham so'z yuritilar ekan bunga misol tariqasida jahon adabiyoti voqeliklarida uchraydigan hikoyalar, rivoyatlar asosida yaratilgan asarlar ularga nazira tariqasida bitilgan ijodiyatlarni keltirish mumkin. Shunga ko'ra biz misol uchun asarlaridagi tushdagi oy yoki balliq kabi obrazlarning bir necha asarlar tarkibida bo'lishiga qaramasdan Isojon Sulton asarlaridagi tahlil darajasiga e'tibor qilishimiz kerak.

“Adiiy asar tushunchasiga - adabiyot va san'atning voqe bo'lish va yashash shakli, yaxlitlik kasb etgan obrazlar tizimi, badiiy muloqot vositasi 2 tarzida ta'rif berib, uning keng va tor ma'nolari borligini ta'kidlaydilar”. [1] Shuningdek, asosan, Isojon Sulton asarlarning Ulug'bek Hamdam asarlari bilan taqqoslanish darajasi bugungi kunda dolzarblik masalasini yuzaga keladigan ilmiy va falsafiy qarashlar bilan boyitilgan. Adabiy badiiy asarlarda obraz tushunchasini ifodalanishi romani hikoya va boshqa turdagi asarlardan qat'iy nazar o'ziga xoslik asosida yuzaga keladi. Bu ham voqelikning teran real voqealik asosida yuzaga kelishi bilan bog'liqdir. Ulug'bek Hamdam ham asarlarida noodatiy tasvir uslublari yetakchilik qiladigan bo'lsa, Isojon Sulton asarlarida esa noan'anaviy uslublar emas xalqni milliy qadriyatlarga asoslangan uslubning yangilangan tahriri portret kabi tasvirlarda beriladigan birinchi tibbiyot simvollarida turli xil qadriyatlarning ifodalanishlarida afsonalar, rivoyatlar asos qilib olinadi. “-Adabiyotning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va o'ynagan roli uning “ijtimoiy vazifasi” deb ataladi (Adabiyotshunoslikka oid asarlarda “adabiyotning ijtimoiy roli”, “adabiyotning ahamiyati”, “adabiyotning mafkuraviy mohiyati” tushunchalari ham shu ma'noda ishlatiladi) tarzida fikr bildiriladi”. [2] Shunga ko'ra makon va zamonning turli xil vaqt asosida yuzaga kelishi davrda yozuvchi voqeliklarning munosabat bilan ifodalanishi ba'zi holatlarda tipologik muhitda ba'zi holatlarda esa struktural ruhda ifodalab beriladi. Bu ham asarning ko'tarinkilik darajasini oshirishga xizmat qilsa ajab emas.

“Adabiyotning baholash-aksiologik funksiyasi ham uning muhim vazifalaridan sanaladi. Negaki, har qanday chinakam badiiy asar bilan tanishish o'qirmanda munosabat uyg'otadi. Tasvirdan ta'sirlanish uni ruhiy muvozanatdan chiqaradi, asarda tasvirlangan nimanidir yoqtirib qoladi va qo'llab-quvvatlagisi keladi, undagi qaysidir timsol yoxud holatni yomon

ko‘rib qoladi va rad etadi. Ayni holat o‘qirmanning betaraf holatdan chiqib, kim yoki nimagadir qo‘shilib, kim yoxud nimanidir inkor qilganini bildiradi. O‘qirmanning shunday holatga tushuvi badiiy adabiyot o‘zining baholash-aksiologik vazifasini bajarayotganini anglatdi. Adabiyotning ushbu vazifasi borliqni aks ettirib, uning badiiy modelini yaratish orqali o‘qirman ko‘z oldiga yaqqol keltirishga muvoziy tarzda uni turli voqea-hodisa va odamlararo munosabatlarni baholashga yo‘naltiradi. Bu esa ijtimoiy turmushdagi narsa-hodisalarga qadriyatlar sifatida yondashishni taqozo etadi. Istalgan badiiy asar bilan tanishib, undagi istalgan badiiy timsolni idrok etish jarayonida tabiiy bir ichki xususiyat sifatida o‘z-o‘zidan xoh bevosita, xoh bilvosita bo‘sin, adabiyotning baholash-aksiologik vazifasi yuzaga keladi”.[3] Har bir yozuvchi asarlarni yozish davomiyligida unga nisbatan munosabat va xalqning kitobxon shaxsiyati munosabat bildirishi ijtimoiy tarixiy voqelik va reallilik asoslariga tayanish lozim. Siyosiy asarlar yoki badiiy jihatdan yuqori bo‘lgan asarlarini o‘qish yoki tahlil qilish kitobxondan katta mas‘uliyatni taqozo etadi. Shunga ko‘ra Ulug‘bek Hamdam asarlarining Isajon Sulton asarlariga taqqoslanishida ham bosh obraz masalasi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Misol uchun Isajon Sulton asarlarida o‘z davrining kishilardan ko‘ra umumiy tipdagi obrazlar xalqona ruh ustunlik qiladi. Bu esa 20-asr adabiyotining o‘ziga xos vakillaridan biridir. Shunga ko‘ra muallifning ideali va muallif dunyoqarashi tushunchalari ham asar tarkibida katta ruhni egallaydi. Muallif ideali hayotda bo‘lishi mumkin xarakter xususiyatiga ega bo‘lgan kishining asarlarida obraz tariqasida yaratilishidir. Muallif dunyoqarashi esa tor va keng ma‘noda asar tarkibining boyib borishiga aloqadorlikni tashkil etadi.

Asarlar tarkibida asarni boyituvchi detallar juda ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Ular tush, xotira tasvirlari yoki baliq badiya yoki oila tasvirlari ham o‘z o‘rnida ijobiy bo‘yoqdorlik kasb etadi. Misol uchun Isojon Sulton ijodiyotida uchraydigan badiiy unsur vositalaridandir. Ammo Ulug‘bek Hamdam asarlarida va Shukur Xolmirzayev hikoyalarda bunday tasvirlar biroz boshqacha tarzda badiiylashtirilgan. 20-asr o‘zbek adabiyotida mana shunday tushunchalarni yuzaga kelishi va ifodalanishi rus adabiyoti va g‘arb adabiyoti bilan aloqadorlikni yuzaga keltiradi. Bu esa asarlarining rivojlanishiga yordam beradi. Isojon Sultonning murojaat qissalarida turli xil yangilikka yog‘irilgan tasvirlar yo‘sni muallif tili va muallif nazarda tutayotgan tushunchalarning yaratilishi yolg‘izlik hisi bilan ham aloqadordir. “Yolg‘izlik” qissasidagi inson faoliyati va umrguzaronlik natijasidagi erishgan yutuqlari sari hisob qilish natijasida romandagi voqeliklarga nisbatan teng mushohada mavjuddir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: —Akademnashrl, 2010. 42- бет
2. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. –Т.: “O‘qituvchi”, 2005. 21- bet.
3. Yakupov I, Omanova M. Badiiy tahlil asoslari fanidan o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent. -2020